



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismaniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	



YANGI O'ZBEKISTONNING MINTAQAVIY VA GLOBAL GEOSIYOSIY POZITSIYASI: MILLIY O'ZLIK VA MEDIA REPREZENTATSIYA TAHLILI

Salim Doniyorov

“Yangi O‘zbekiston”, “Pravda Vostoka” gazetalari
tahririyati Bosh muharriri,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonning 2016-2025-yillarda global va mintaqaviy geosiyosiy identifikatsiyasi milliy o‘zlik bilan qiyosiy yondashuv asosida, milliy matbuot materiallari negizida tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida mamlakatning tashqi siyosiy imiji, Markaziy Osiyodagi o‘rni, milliy manfaatlari, davlat brendi hamda milliy o‘zlikning mediadiskursdagi ifodalanish shakllari o‘rganilgan. Shuningdek, milliy matbuotda “Yangi O‘zbekiston” konseptining ochiqlik, pragmatizm, ko‘p vektorli tashqi siyosat va mintaqaviy hamkorlik tamoyillari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanish xususiyatlari yoritilgan. Tahlil natijalari milliy matbuotda geosiyosiy identifikatsiya milliy qadriyatlar, suverenitet, mintaqaviy yaqinlashuv va xalqaro nufuz omillari bilan uyg‘un tarzda aks etganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, geosiyosiy identifikatsiya, milliy o‘zlik, milliy matbuot, mediadiskurs, tashqi siyosat, Markaziy Osiyo, davlat imiji, mintaqaviy hamkorlik, milliy manfaatlar.

Abstract: This article analyzes the global and regional geopolitical identity of New Uzbekistan in 2016-2025 through a comparative approach to national identity, based on materials from the national press. The study examines the country's foreign policy image, its role in Central Asia, national interests, state branding, and the forms of representation of national identity in media discourse. In addition, the article explores the features of the formation of the concept of “New Uzbekistan” in the national press in the context of openness, pragmatism, a multivector foreign policy, and regional cooperation. The results of the analysis indicate that, in the national press, geopolitical identity is represented in harmony with national values, sovereignty, regional rapprochement, and the factor of international authority.

Key words: New Uzbekistan, geopolitical identity, national identity, national press, media discourse, foreign policy, Central Asia, state image, regional cooperation, national interests.

Аннотация: В статье анализируется глобальная и региональная геополитическая идентичность Нового Узбекистана в 2016-2025 годах на основе сравнительного подхода с национальной идентичностью и материалов национальной прессы. В рамках исследования рассматриваются внешний политический имидж страны, её место в Центральной Азии, национальные интересы, государственный бренд, а также формы репрезентации национальной идентичности в медиадискурсе. Кроме того, освещаются особенности формирования концепта “Новый Узбекистан” в национальной прессе в контексте открытости, прагматизма, многовекторной внешней политики и регионального сотрудничества. Результаты анализа показывают, что в национальной прессе геополитическая идентичность отражается в гармонии с национальными ценностями, суверенитетом, региональным сближением и фактором международного авторитета.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, геополитическая идентичность, национальная идентичность, национальная пресса, медиадискурс, внешняя политика, Центральная Азия, имидж государства, региональное сотрудничество, национальные интересы.

KIRISH

Globalashuv sharoitida taraqqiy topgan va rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro imiji hamda geosiyosiy pozitsiyasi tobora murakkab, ko‘pqirrali va dinamik mazmun kasb etib borayotgani kuzatilmoqda. Bugungi kunda mamlakatlar o‘z islohotlari va taraqqiyot modelini rasmiy diplomatik kanallar bilan cheklab qolmay, ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar va media diskurs orqali keng jamoatchilikka yetkazmoqda. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, axborot makonida shakllanayotgan obraz, ramz va ma‘no tizimlari davlatning global va mintaqaviy maydondagi o‘rnini belgilashda strategik ahamiyatga ega omilga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy geosiyosiy jarayonlar siyosiy va iqtisodiy resurslar bilan bir qatorda axborot va ma‘no maydonida ham kechayotganini qayd etish mumkin. O‘zbekiston misolida ham tashqi va ichki siyosat



mazmunida sifat jihatidan yangi bosqich shakllangani kuzatiladi. Bu holat iqtisodiy va institutsional islohotlar bilan birga, mamlakatning xalqaro maydondagi geosiyosiy identifikatsiyasi hamda milliy o'zlikni zamonaviy mazmunda qayta anglash jarayonlarida namoyon bo'lmoqda. Keng ko'lamlı o'zgarishlar davlatning o'zini jahon hamjamiyatiga taqdim etish uslublari, mintaqadagi pozitsiyasi va tashqi hamkorlik formatlarini yangi mazmun bilan boyitdi. Ayniqsa, Markaziy Osiyodagi geosiyosiy transformatsiyalar, mintaqaviy hamkorlikning faollashuvi va ochiq tashqi siyosat tamoyillarining mustahkamlanishi mamlakatning yangi identifikatsion modelini shakllantirmoqda. Ushbu jarayon siyosiy qarorlar bilan cheklanib qolmasdan, media makondagi ma'no, ramz va diskurslar orqali ham o'z ifodasini topmoqda. Shu jihatdan, geosiyosiy identifikatsiyani media tahlil asosida o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, jadal integratsiyalashuv jarayoni rasmiy diskursda "Yangi O'zbekiston" tushunchasi orqali ifodalanib, u islohotlar dasturi doirasidan chiqib, davlatning xalqaro maydondagi o'rnı, mintaqadagi pozitsiyasi hamda milliy o'zlikni zamonaviy siyosiy mazmun bilan uyg'unlashtirishni aks ettiruvchi konseptual platforma sifatida shakllandi. Jumladan, Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmoni mazkur islohotlarning institutsional va huquqiy asoslari mustahkamlanganini hamda uning davlat siyosati darajasida barqaror yo'nalish sifatida qaror topganini ko'rsatadi. Uzoq istiqbolga mo'ljallangan ochiq, pragmatik va konstruktiv islohotlar mazmunini anglashda milliy matbuot alohida o'rin tutadi.

Geosiyosiy identifikatsiya, eng avvalo, matnda, sarlavhada, ramzlarda, tashqi sheriklar obrazida hamda "biz kimmiz?" degan savolga berilayotgan ommaviy javoblarda namoyon bo'ladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari soni izchil o'sib, mediamaydon ko'lami sezilarli darajada kengaydi: 2016-yilda 1 514 ta bo'lgan OAV soni 2023-yilga kelib 2 100 tadan oshdi, ularning qariyb 65 foizini nodavlat sektor tashkil etdi. 2024-yilga kelib esa umumiy OAV soni 2 349 taga yetdi. Internet nashrlari, jurnallar va telekanallar ulushining ortishi milliy mediamakonning raqobatbardosh, ko'pqatlamli va dinamik tus olayotganini ko'rsatadi.

1-jadval: O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari rivojlanishining bosqichli dinamikasi²

Ko'rsatkichlar	2016 yil	2023 yil	2024 yil
OAV umumiy soni	1 514 ta	2 100+ ta	2 349 ta
Nodavlat OAV ulushi (%)	-	≈65 %	≈65 %
Media turlari rivojlanishi	An'anaviy	Kengayish bosqichi	Diversifikatsiya (internet, TV, jurnal)
Mediamaydon xususiyati	Cheklangan	Kengayayotgan	Ko'pqatlamli va raqobatbardosh

Shu bilan birga, milliy axborot makonida davlat va jamoatchilik o'rtasidagi kommunikatsiyalar yangi bosqichga ko'tarildi. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ma'lumotlariga ko'ra, rasmiy axborot manbalari soni 2019-yilda 559 tadan 2024-yilga kelib 4 mingtadan oshdi. Axborot oqimlarining 60-70 foizi bevosita axborot xizmatlari orqali shakllanayotgani "Yangi O'zbekiston"ning geosiyosiy qiyofasi milliy matbuotda davlatning strategik kommunikatsiya siyosati bilan chambarchas bog'liq holda shakllanayotganini anglatadi. Mazkur sharoitda "Yangi O'zbekiston" obrazining media reprezentatsiyasi orqali milliy o'zlik, geosiyosiy manfaatlar va xalqaro imij o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Bu yondashuv mamlakatning ichki taraqqiyot modeli va tashqi siyosiy strategiyasini yaxlit holda anglash imkonini beradi. Ushbu maqolaning maqsadi – 2016-2025-yillar kesimida milliy matbuot materiallari asosida Yangi O'zbekistonning global va mintaqaviy geosiyosiy identifikatsiyasi shakllanish jarayonini, bu jarayonda milliy o'zlikning asosiy markerlari qanday faollashganini hamda tashqi siyosiy ochiqlik, mintaqaviy hamkorlik va milliy manfaatlar o'rtasida shakllangan semantik muvozanatni ilmiy tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yangi O'zbekistonning tashqi siyosati va mintaqaviy faolligiga bag'ishlangan tadqiqotlarda mamlakatning "yopiq davlat" modelidan "ochiq va pragmatik hamkorlik" modeliga o'tish jarayoni asosiy xulosa sifatida ilgari surilmoqda. Markaziy Osiyoga oid tahlillarda O'zbekistonning mintaqadagi aloqalarni faollashtirgani, qo'sh-nichilik munosabatlari va konstruktiv muloqotni tashqi siyosatning ustuvor tamoyili sifatida shakllantirgani qayd etiladi. Ayrim ilmiy ishlar ushbu transformatsiyani "Yangi O'zbekiston"ning tashqi siyosiy brendi sifatida baholaydi. O'zbekistonning geografik joylashuvi, tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarini ilmiy jihatdan o'rganish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi adabiyotlar mamlakatni kompleks, tizimli va ko'p qirrali tahlil qilish imkonini beradi. Xususan,

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

² <https://stat.uz/uz/>

Richard Pomfret o'zining Markaziy Osiyo iqtisodiyotiga bag'ishlangan tadqiqotlarida O'zbekistonni tabiiy resurslarga boy, lekin institutsional transformatsiya bosqichidagi davlat sifatida baholab, iqtisodiy liberallashtirish jarayonlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini ta'kidlaydi. Shuningdek, World Bank va International Monetary Fund hisobotlarida mamlakat iqtisodiyotida diversifikatsiya, investitsiya muhitini yaxshilash hamda xususiy sektor ulushini oshirish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etilgan.

Tarixiy nuqtayi nazardan, Svat Soucek hamda Adeeb Khalid kabi olimlar O'zbekiston hududini Silk Road doirasida shakllangan sivilizatsiya markazi sifatida talqin qiladilar va Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarni islom madaniyati hamda savdo aloqalarining strategik nuqtalari sifatida baholaydilar. Bu qarashlar UNESCO materiallari bilan ham uyg'un bo'lib, mazkur shaharlar jahon madaniy merosining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan. Zamonaviy siyosiy va institutsional islohotlar tahlilida Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan ochiqlik siyosati, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiya jarayonlari alohida o'rin tutadi. Bu borada Asian Development Bank hamda United Nations Development Programme tahlillarida O'zbekiston mintaqaviy hamkorlikni kuchaytiruvchi va investitsiyaviy jozibadorlikni oshiruvchi davlat sifatida baholanadi. Geografik va tabiiy omillar nuqtayi nazaridan esa tadqiqotlarda mamlakatning Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgani, Qizilqum cho'li va Turon pasttekisligi kabi hududlar iqtisodiy ixtisoslashuvga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida ko'rsatiladi. Bu haqda xalqaro tahlillarda suv resurslarining cheklanganligi va iqlimning keskin kontinental xususiyati agrar hamda sanoat siyosatini shakllantirishda asosiy omillardan biri sifatida ta'kidlanadi.

Shu bilan birga, madaniy meros va milliy identifikatsiya masalalari bo'yicha tadqiqotlarda O'zbekiston madaniyati turkiy, forsiy va islomiy an'analar uyg'unligida shakllangani qayd etiladi. Milliy taomlar, hunarmandchilik va me'morchilik an'analari mamlakatning turistik brendini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida baholanadi. Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonni o'rganishda tarixiy meros, geografik sharoit, iqtisodiy siyosat va madaniy omillarning o'zaro uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, bu mamlakatni Markaziy Osiyodagi strategik va dinamik rivojlanayotgan davlat sifatida talqin qilish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada sifat va miqdor elementlarini birlashtirgan aralash yondashuv qo'llanildi.

Birinchi bosqichda normativ-huquqiy tahlil usuli orqali "Yangi O'zbekiston" diskursining rasmiy konseptual asoslari o'rganildi. Bunda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi, axborot sohasini rivojlantirish va OAVni qo'llab-quvvatlashga oid qarorlar, ochiq ma'lumotlar va davlat kommunikatsiyasiga doir hujjatlar empirik baza sifatida olindi.³

Ikkinchi bosqichda milliy matbuot diskursi kontent tahlil qilindi. Bu yerda ochiq manbalarda aks etgan milliy axborot oqimi, jumladan, "Yangi O'zbekiston" gazetasi, UzReport, Daryo, Xabar.uz, Kursiv Uzbekistan kabi platformalarga oid monitoring materiallari hamda davlat idoralari axborot xizmatlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilindi. Masalan, Statistika agentligining 2024-yil avgust oyi OAV monitoringida "Yangi O'zbekiston" nashrida tashqi savdo, 187 ta mamlakat bilan savdo aloqalari va tashqi iqtisodiy hamkorlik haqidagi sarlavhalar alohida qayd etilgan. Bu milliy matbuotda geosiyosiy idrokning tobora ko'proq geoiqtisodiy til orqali ifodalalanayotganini ko'rsatadi.⁴

Uchinchi bosqichda diskurs-analitik yondashuv asosida quyidagi beshta kategoriya belgilandi:

- 1) suverenitet va milliy manfaat;
- 2) ochiqlik va dunyo bilan hamkorlik;
- 3) Markaziy Osiyo markaziy ustuvorlik sifatida;
- 4) ko'pvektorli hamkorlik;
- 5) milliy o'zlikning zamonaviylashgan ramzlari.

Shu asosda 2016-2025-yillar davrida milliy matbuotda qanday semantik siljishlar yuz bergani tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2016-2025-yillar davomida milliy matbuotda O'zbekistonning geosiyosiy identifikatsiyasi bosqichma-bosqich shakllangani kuzatiladi. Ushbu jarayonni shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich 2016-2019-yillarni qamrab olib, mazkur davrda media diskursda "ochilish", "qo'shnilar bilan yaqin-

³ <https://lex.uz/docs/6083381>

⁴ <https://stat.uz/img/avgust-oav-2024.pdf>



lashuv” va “ishonchni tiklash” kabi ma’naviy-siyosiy motivlar ustuvorlik qildi. Bu bosqichda O‘zbekistonning tashqi siyosiy qiyofasi muloqotga ochiq va mintaqaviy munosabatlarni tiklashga intilayotgan davlat sifatida reprezentatsiya etildi. Ikkinchi bosqich 2020-2022-yillarga to‘g‘ri kelib, pandemiya sharoiti, global noaniqliklar va ichki islohotlar jarayoni ta’sirida media diskurs yangi mazmun bilan boyidi. Unda “barqarorlik”, “yangilanish” va “davlat brendi” kabi konseptual elementlar faollashdi.

Natijada mamlakat imiji tashqi xavf-xatarlarga moslasha oladigan va ichki transformatsiyani davom ettirayotgan tizim sifatida namoyon bo‘ldi. Uchinchi bosqich 2023-2025-yillarni qamrab olib, bu davrda “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi to‘laqonli geosiyosiy va geoiqtisodiy markerga aylandi. Milliy matbuotda mamlakat endilikda faqat islohotchi davlat sifatida emas, balki mintaqaviy tashabbuslar markazi, xalqaro muloqot maydoni va ko‘p tomonlama hamkorlik subyekti sifatida ifodalana boshladi. Mazkur transformatsiya 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan institutsional asoslar bilan uyg‘unlik kasb etadi. Tahlilning birinchi muhim natijasi shuki, milliy matbuotda geosiyosiy identiklik klassik harbiy-siyosiy tildan ko‘ra, geoiqtisodiy va diplomatik tilda ifodalanmoqda. Xususan, 2024-yil avgust oyi monitoringida “Yangi O‘zbekiston” nashri hamda boshqa milliy platformalarda tashqi savdo, eksport, sherik davlatlar, import dinamikasi kabi mavzularning markaziy o‘rin egallagani kuzatiladi. Demak, davlatning dunyodagi o‘rni, avvalambor, bozorlar, logistika, sarmoya va savdo aloqalari orqali ramzlashtirilmoqda. Bu holat Yangi O‘zbekiston identifikatsiyasining geosiyosatdan geoiqtisodiyotga yaqinlashgan formatda shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo milliy matbuotda tashqi siyosatning periferiyasi emas, balki uning markaziy yo‘nalishi sifatida talqin etilmoqda. 2024-yil 9-avgust kuni bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvidagi nutqlar, shuningdek, 2025-yil aprel oyida o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi” sammiti doirasidagi bayonotlar mintaqaning O‘zbekiston tashqi siyosatidagi ustuvor ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Milliy matbuotda mazkur tendensiya “qo‘shnichilik”, “mushtarak xavfsizlik”, “umumiy taraqqiyot” va “mintaqaviy bog‘liqlik” kabi tushunchalar orqali mustahkamlanmoqda. Xususan, 2025-yilga oid ma’lumotlarga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi savdo aylanmasi so‘nggi yetti yilda to‘rt baravarga oshib, 54 mlrd yevroni tashkil etgani qayd etilgan. Bu kabi faktlar milliy matbuotda mintaqaviy subyektlikni namoyon etuvchi muhim iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida talqin etilmoqda. Milliy o‘zlik media diskursda zamonaviy tashqi siyosiy obraz bilan qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Aksincha, u mazkur obrazning ma’naviy-ideologik asosi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Matbuotda O‘zbekiston “milliy qadriyatlarga tayangan, biroq dunyoga ochiq”, “o‘z manfaatlarini himoya qiladigan, shu bilan birga muloqotga tayyor”, “an‘ana va modernizatsiyani uyg‘unlashtirgan” davlat sifatida ifoda etilmoqda. Bunda milliylik etnomadaniy yopiqlik sifatida emas, balki tashqi ochiqlikni legitimlashtiruvchi ichki poydevor sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan, Yangi O‘zbekiston diskursida milliylik va globallik o‘rtasida ziddiyat emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi (komplementar) munosabat shakllangani kuzatiladi. Milliy matbuotda ko‘pvektorlilik ko‘proq “balanslash” sifatida emas, balki “pragmatik diversifikatsiya” sifatida ifoda etilmoqda. Statistika agentligining 2024-yil yakuniy tashqi savdo ma’lumotlariga ko‘ra, MDH davlatlarining umumiy tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 35,1 foizni tashkil etgan. MDH doirasida Rossiya 50,3 foiz, Qozog‘iston 18,5 foiz, Qirg‘iz Respublikasi 3,7 foiz, Tojikiston 3 foiz va Turkmaniston 5 foiz ulush bilan asosiy savdo sheriklari sifatida qayd etilgan. Ushbu raqamlar milliy matbuotdagi regionalizm faqat ritorik emas, balki real iqtisodiy asosga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan bir vaqtda, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikka oid axborotlar hamda sarlavhalarning ko‘payib borayotgani O‘zbekistonning ko‘pqtubli xalqaro tizimda o‘z o‘rnini izchil ravishda kengaytirayotganini anglatadi. Milliy matbuotda geosiyosiy identifikatsiyani shakllantirishda davlat axborot infratuzilmasining roli sezilarli darajada oshdi. 2019-yilda 559 tani tashkil etgan rasmiy axborot tarqatish manbalari soni 2024-yilga kelib 4 mingtadan oshgani, shuningdek, axborot oqimining 60-70 foizi aynan ushbu manbalar hissasiga to‘g‘ri kelayotgani milliy media makonda kun tartibining muhim qismi rasmiy kommunikatsiya kanallari orqali shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bu holat bir tomondan davlatning tashqi siyosiy brendini tezkor, tizimli va muvofiqlashtirilgan tarzda targ‘ib qilish imkonini yaratadi. Biroq, ikkinchi tomondan, u media pluralizmi hamda tanqidiy interpretatsiya doirasini ma’lum darajada cheklash ehtimolini ham keltirib chiqaradi. Shu jihatdan, axborot infratuzilmasining kengayishi bilan birga media muhitining institutsional sifatini ham baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy matbuotda “Yangi O‘zbekiston” identifikatsiyasi tobora “mintaqaviy tugun” va “muloqot platformasi” sifatida shakllanmoqda.

2024-2025-yillardagi rasmiy bayonotlar va axborot materiallarida Samarqand va Toshkent xalqaro uchrashuvlar, “Markaziy Osiyo plyus” formatlari hamda transmintaqaviy muloqot maydonlari sifatida ilgari surilmoqda. Milliy matbuot bu jarayonni mamlakatning xalqaro nufuzi ortib borayotganining muhim belgisi sifatida talqin qiladi. Bunday yondashuv geosiyosiy identifikatsiyani an’anaviy “hududiy davlat” tasavvuridan “tashabbuskor va bog‘lovchi davlat” modeliga yaqinlashtirmoqda. Bu yerda O‘zbekiston mintaqadagi aloqalarni bog‘lovchi, muloqotni tashkil etuvchi va tashabbuslarni ilgari surishga qodir subyekt sifatida reprezentatsiya etilmoqda. Shu bilan birga, tahlil muvozanatli xulosaga olib keladi. Milliy matbuotda ochiqlik, islohot va mintaqaviy liderlik obrazlari izchil kuchayib borayotgani kuzatiladi. Ayni paytda, xalqaro kuzatuvlar media erkin-

ligi va mustaqil tahriri muhit sohasida muayyan muammolar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O'zbekistonning geosiyosiy identifikatsiyasi milliy matbuotda ancha tizimli va ijobiy tarzda shakllangan bo'lsa-da, uning xalqaro ishonch indeksi to'liq mustahkamlanishi media muhitining institutsional sifatini yanada takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq ekani ayon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2016-2025-yillarda milliy matbuotda "Yangi O'zbekiston"ning geosiyosiy identifikatsiyasi bosqichma-bosqich shakllangan va u milliy o'zlik bilan uzviy bog'liq holda talqin etilgan. Milliy matbuotda mamlakatning tashqi siyosiy qiyofasi xalqaro munosabatlar ishtirokchisi sifatidagi tasvir bilan cheklanib qolmay, milliy manfaatlarini anglagan, tarixiy-madaniy tayanchlarga ega va mintaqaviy hamkorlikni ilgari surayotgan davlat sifatida namoyon bo'lgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyoga ustuvor yo'nalish sifatida yondashuv, qo'shnichilik diplomatiyasi, ko'p vektorli tashqi siyosat va ochiqlik tamoyillari milliy axborot makonida Yangi O'zbekistonning asosiy geosiyosiy belgilarini shakllantirgan. Tadqiqot natijalari milliy matbuotda geosiyosiy identifikatsiyaning bir qator muhim xususiyatlarini ochib berdi. Jumladan, milliy o'zlik va zamonaviy davlat brendi o'zaro raqobat qiluvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar sifatida shakllangani, O'zbekistonning mintaqaviy o'rni tashabbuskor va bog'lovchi subyekt sifatida mustahkamlanayotgani hamda mamlakat qiyofasi geoiqtisodiy, madaniy va sivilizatsion omillar bilan boyitilayotgani aniqlandi. Bu esa milliy matbuotda geosiyosiy identifikatsiyaning an'anaviy siyosiy doiradan chiqib, kengroq ma'naviy va strategik mazmun kasb etayotganini ko'rsatadi.

Mazkur natijalardan kelib chiqib, milliy matbuotda geosiyosiy mavzularni yoritishni yanada chuqurlashtirish, milliy manfaatlar va tashqi siyosiy ustuvorliklarni ilmiy-analitik asosda kengroq sharhlash, Markaziy Osiyo bilan bog'liq mediadiskursni iqtisodiy, transport, energetika va madaniy hamkorlik yo'nalishlari kesimida kengaytirish zarurligi namoyon bo'ladi. Shuningdek, "Yangi O'zbekiston" brendini yoritishda milliy o'zlik, tarixiy xotira va zamonaviy islohotlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq ochib berish davlatning tashqi qiyofasini ichki ma'naviy poydevor bilan mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda jurnalistlar va siyosiy sharhlovchilarning geosiyosat, xalqaro munosabatlar va media tahlil sohalaridagi kasbiy salohiyatini oshirish, axborot manbalarini diversifikatsiya qilish va tahlillarda ekspert fikri hamda qiyosiy yondashuvlar ulushini ko'paytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kelgusida bosma nashrlar, onlayn media va ijtimoiy tarmoqlar kontentini o'zaro qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, "Yangi O'zbekiston" diskursining xalqaro media makonida qanday qabul qilinayotganini o'rganish ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo'nalishi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-60-son, 28.01.2022. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, PQ-294-son, 27.06.2022. "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/6083381>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi. Axborot xizmati rahbarlari faoliyati samaradorligi natijalari. 25.04.2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari maslahat uchrashuvidagi nutqi. 09.08.2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti. "Oldimizda mintaqamizni nafaqat barqaror, balki farovon qilish uchun tarixiy imkoniyat turibdi". 01.04.2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Foreign Trade Turnover of the Republic of Uzbekistan (January-December 2024). 2025.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. 2024-yil avgust oyi OAV monitoringi.
8. Haydarov, A.A. "Uzbekistan: novyy vzglyad na perspektivy sotrudnichestva v Tsentralnoy Azii". 2023.
9. Jovhar, M.S. "International Organizations as Instruments for Building State Image: The Case of Uzbekistan". 2024.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.